



O'ZBEKISTONDA MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI VAKILLIK VA IJROIYA ORGANLARI O'ZARO MUNOSABATLARINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Aymuratov Sultan

Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti

sultanaymuratov@gmail.com

+998996699741

Omirzakov Rustem

Qoraqalpoq davlat universiteti stajer-o'qituvchisi

omirzakov_r@karsu.uz

+998997412496

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8113275>

ARTICLE INFO

Received: 23th June 2023

Accepted: 29th June 2023

Online: 30th June 2023

KEY WORDS

Davlat hokimiyati, ijro organi, mahalliy davlat hokimiyati, davlat hokimiyati vakillik organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, xalq deputatlari Kengashlari, Viloyat hokimi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi mahalliy davlat hokimiyati vakillik va ijroiya organlari o'zaro munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari to'xtalib o'tilgan bo'lib, mahalliy davlat hokimiyati vakillik rganlari faoliyatining konstitutsiyaviyasoslari, shuningdek ijroi organlarining faoliyati haqida aytib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mahalliy miqyosda boshqaruvni tashkil etishga o'ziga xos tarzda yondashilgan, MDH va boshqa sobiq ittifoqdosh respublikalar konstitutsiyalaridan farq qilib, O'zbekiston Konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati organlari tizimi alohida, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarining tizimi alohida belgilandi. O'zbekistondan boshqa davlatlarning konstitutsiyalarida «mahalliy davlat hokimiyati» degan tushuncha ishlatilmagan. Jumladan, Belarus Respublikasi Konstitutsiyasida «Mahalliy boshqaruv va o'zini o'zi boshqaruv», Qozog'iston Konstitutsiyasida «Davlatning hududiy tuzilishi va o'zini o'zi boshqaruv», Qirg'iziston, Rossiya va Estoniya Konstitutsiyalarida «Mahalliy boshqaruv», Turkmaniston Konstitutsiyasida «Mahalliy ijro hokimiyati» alohida bobda, «Mahalliy boshqaruv» alohida bobda berilgan.[1. B. 313]

Hech birimizga sir emas o'tgan davrda davlat hokimiyati organlari faoliyati qonunchiligida ham tashkiliy-amaliy jihatlarida ham tub o'zgarishlar, yangilanishlar yuz berdi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash, markazda hamda joylarda qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat va hududiy dasturlarini ishlab chiqishda jamoatchilik ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari shakllantirildi. Ijro hokimiyatining vakillik organlari oldida hisobdorligi tamoyili Konstitutsiya hamda qonunlarda mustahkamlab qo'yildi. Biroq ba'zi mahalliy ijro etuvchi organ vakillari qonuniy vakolatlari doirasidan chiqish holatlari ham ko'p uchraydigan holatlardan biri qolmoqda...



Ayni shu masalada to'xtalar ekan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev hali Konstitutsiya islohotlar boshlanmasdanoq 2021-yil 18-iyun Andijon viloyati faollari bilan uchrashuvda kelajakda hokimlarning saylanishiga to'xtalib o'tib, shunday degan edi:

“Biz joylardagi muammolarni hal qilish bo'yicha deputatlar, tuman kengashlariga juda katta vakolatlar berganmiz. Shunday tizimga o'tamizki, har bir kengash rahbari hokim bo'lmaydi. Kengashga saylangan deputat unga rahbar bo'ladi. Viloyat hokimi ham viloyat kengashining rahbari bo'lmaydi. Ijro organi rahbari — tuman, shahar kengashlariga hisobot beruvchi. Davlat rahbari har bir viloyat, tuman va shaharda vazirlik va respublika idoralarining vakillari borligini, lekin ular haligacha quyi pog'onaga hisobot berishni o'rganmaganligi ta'kidladi. «Bizning ijro organimizdagi eng katta kamchilik shu. Bu organlar vakillari yuqori tashkilotiga suyanib o'z bilganicha ishlab yuribdi. Bu zamon tugagan”, — dedi u.[2]

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning asosida qabul qilingan qonunlar jamiyat hayotining barcha sohalari va davlat faoliyatini isloh qilish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjatlardan biri bo'lgan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi – Birlashgan Millatlar Tashkilotining asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan. Mamlakatimizda 2023-yil 30-aprelda bo'lib o'tgan referendumda “yoqlab” ovoz bergan fuqarolarning 90,21 foizi yangi Konstitutsiyani qabul qildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya Yangi O'zbekiston strategiyasining siyosiy-huquqiy asosini yaratib, milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi.[3. B 110.] Yangi tahrirdagi Konstitutsiya milliy davlatchilik taraqqiyotining tarixiy muhim bosqichida davlat va jamiyatni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab, Yangi O'zbekiston strategiyasini amalga oshirishning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratib berdi. Bosh qomusimizda davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekanligi belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mutlaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi. Hokimiyatlar bo'linishi prinsipi hamda o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanati tizimining zamonaviy konsepsiyasini hisobga olgan holda, Oliy Majlis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati o'rtasida vakolatlar qayta taqsimlandi. Davlat hokimiyatining mahalliy vakillik va ijroiya organlari vakolatlari taqsimlanishiga asoslangan davlat hokimiyatini tashkil etishning huquqiy asoslari belgilandi. [4]

Konstitutsiyaga asosan, mamlakatimizda mahalliy miqyosda ham ikki turdagi, ya'ni vakillik davlat hokimiyati va ijro hokimiyati organlari mavjud. Konstitutsiyaning 120-moddasiga binoan: «Viloyatlar, tumanlar va shaharlarda (tumanga bo'ysunadigan shaharlardan tashqari) xalq deputatlari Kengashlari davlat hokimiyati vakillik organlaridir. Xalq deputatlari Kengashiga uning deputatlari orasidan qonunga muvofiq saylanadigan rais boshchilik qiladi». [5]

Viloyat, tuman, shahar hokimi viloyat, tuman va shaharning oliy mansabdor shaxsi bo'lib, ayni bir vaqtda tegishli hududdagi vakillik va ijroiya hokimiyatini boshqaradi. Viloyat hokimi, Toshkent shahar hokimi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va tegishli xalq



deputatlari Kengashi oldida hisobdordirlar. Tuman, shahar hokimi yuqori turuvchi hokim va tegishli xalq deputatlari Kengashi oldida hisobdordir.

Xalq deputatlari Kengashi va hokim viloyat, tuman va shahar uchun umumiy bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalari amalga oshirilishini, joylarda qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qabul qilgan hujjatlar, yuqori turuvchi xalq deputatlari Kengashlari va hokimlar qarorlarining ijrosini, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqalarni, aholini viloyat, tuman va shaharni boshqarishga jalb etishni ta'minlaydi.[6]

Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohani modernizatsiyalash, hududlarni har tomonlama rivojlantirish, aholining hayot darajasi va farovonligini yuksaltirish bo'yicha davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. [7. B 36]

So'nggi yillarda respublikamizda O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasi](#) va "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi [Qonuniga](#) muvofiq mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini tubdan oshirish bo'yicha keng ko'lamli kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan:

birinchidan, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari faoliyatining samaradorligini oshirish, tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi;

ikkinchidan, hududlarda ishlarning haqqoniy holatini chuqur va har tomonlama tanqidiy o'rganish va mavjud muammolarni hal qilish maqsadida viloyatlar, tumanlar, shaharlar hududlarini tegishli viloyatlar va Toshkent shahar, tumanlar (shaharlar) hokimlari, prokuratura, ichki ishlar va davlat soliq xizmati hududiy organlari rahbarlari boshchilik qiladigan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar tashkil etilib, ularning asosiy vazifalari belgilandi;

uchinchidan, barcha darajadagi hokimlarning xalq deputatlari Kengashlari hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati yalpi majlislarida hisobot berishi tizimi yaratildi, shuningdek, hokim va uning o'rinbosarlarining xalq bilan ochiq muloqot qilish, shu jumladan aholining keng qatlamlari bilan sayyor qabullar o'tkazish amaliyoti joriy etildi;

to'rtinchidan, mahallalarning "o'sish nuqtalari"ni aniqlash, mavjud muammolarni hal etish orqali aholini kasb-hunarga o'qitish, bandligini ta'minlash va tadbirkorlikka jalb etish, "drayver" loyihalarni amalga oshirish bo'yicha "mahallabay" ishlash tizimi tashkil qilindi;

beshinchidan, "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari"ga kiritilgan har bir shaxs bilan tizimli ravishda muntazam ish olib borishni tashkil qilish orqali aholining, ayniqsa, moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalar, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ularning real daromadlarini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.[8]

Shunday qilib, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mamlakatning ma'muriy-hududiy tuzilishiga qarab viloyat, tuman va shahar pog'onalarida faoliyat ko'rsatadi. Ular davlat hokimiyatining vakillik organlari va ijro hokimiyati organlari ko'rinishida mavjuddir. Mahalliy hokimiyat organlarining tizimi deganda, viloyat, tuman, shaharlarda tashkil qilinadigan davlat hokimiyatining vakillik organlari - xalq deputatlari Kengashlari va ijroiya hokimiyati organlari



- hokimliklar yig'indisi tushuniladi. Bu tizimga kiruvchi vakillik hokimiyati organlari bir-biridan mustaqil, hamkorlik asosida tashkil qilinsa va faoliyat yuritrsa, ijro hokimiyati organlari - hokimlar vertikal bo'ysunish asosida tashkil topadi va faoliyat yuritadi.

References:

1. Husanov O.T Konstitutsiyaviy huquq: darslik.. - T.,: Yuridik adabiyotlar publish, 2022. - 400 c.
2. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining yangicha imiji // www.yuz.uz URL: <https://yuz.uz/uz/news/mahalliy-davlat-hokimiyati-organlarining-yangicha-imiji> (дата обращения: 04.07.2023).
3. Omirzakov, R. (2023). CONSTITUTIONAL AND LEGAL GUARANTEES OF ENVIRONMENTAL RIGHTS OF CITIZENS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education*, 1(12), 110–111. Retrieved from <http://aidlix.com/index.php/us/article/view/1268>
4. Yangi O'zbekiston — vakillik organlarining rivojlanishida yangi bosqich // www.parliament.gov.uz URL: <https://parliament.gov.uz/news/yangi-ozbekiston-vakillik-organlarining-rivojlanishida-yangi-bosqich> (дата обращения: 04.07.2023).
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi(2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi [referendumida](#) umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan)// URL: <https://lex.uz/docs/-6445145#-6445187>
6. O'zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida” Qonuni, 02.09.1993// URL: <https://lex.uz/uz/docs/-112170>
7. Omirzakov, R., & Tursinbaev, M. (2023). ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORAT SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVI. *Talqin Va Tadqiqotlar*, 1(25). извлечено от <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/793>
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining ularga yuklangan vazifalarni bajarishda shaxsiy mas'uliyatini kuchaytirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori. 24.08.2021 // URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5598091>